

Jadidlar izidan-6Test kodi: **130282**

@e_test1_bot ga

Namunada: **130282#abcd.....** yoki**130282#1a2b3c4d.....**dek jo'natib

javoblaringizni tekshiring

1. Qo'qonda 1914-yildan chop etilgan qanday nomdagi jadid gazetasining Andijondagi "obuna va e don qabul qiladigan vakili" bo'lib turgan?

- A) "Hurriyat" B) "Sadoyi Farg'ona"
C) "Ishtrokyun" D) "Sadoyi Turkiston"

2. Kim "El bayrogd" gazetasida muxtoriyat gimni deyishga arzigulik "Ozod turk bayrami" she rini e'lon qildi?

- A) Abdulla Avloniy B) Abduraf Fitrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) G'ulom Zafariy

3. 1913-yilning oxirida "**Turon**" jamiyati maydonga keldi. Truppaning g'oyaviy-badiiy rahbari kim hisoblanadi?

- A) Abdulla Avloniy B) Abduraf Fitrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) G'ulom Zafariy

4. Kimning "Qalandar ishq" nomli she'ri aruzda yozilganlari orasida eng mashhuri hisoblanadi?

- A) Abdulla Avloniy B) Abduraf Fitrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) G'ulom Zafariy

5. Kim 1923-yilda Toshkent xotin-qizlar bilim yurtida mudir, 1924-yilda harbiy maktabda o'qituvchilik qiladi?

- A) Abdulla Avloniy B) Abduraf Fitrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) G'ulom Zafariy

6. Abdulla Qodiriy qaysi asarini bevosita Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi ta'sirida yozilganini e'lirof etadi?

- A) Juvonboz B) Baxtsiz kuyov
C) Uloqda D) Jinlar bazmi

7. Kim 1912-yilda bosilib chiqqan she'rlaridan birini "**Dunyo fojiasindan**" deb nomlangan edi?

- A) Abdulla Avloniy B) Abduraf Fitrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) G'ulom Zafariy

8. Kim ijodda Dumbulboy, Dumbulnisa kabi

maxfiz imzolardan foydalangan?

- A) Abdulla Avloniy B) Is'hoqxon Ibrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) Abdulla Qodiriy

9. Kim "O'zbek adabiyoti namunalari" (1- jild) majmuasida esa barcha og'zaki va yozma manbalarni ilmiy tizimga solib, adabiyotimiz tarixini manbalar bo'yicha yaratdi?

- A) Abdulla Avloniy B) Abduraf Fitrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) G'ulom Zafariy

10. Kim rus adabiyotida A.P.Chexovning "Buqalamun" hikoyasini, Gogolning "Uylanish" pyesasini tarjima qilgan?

- A) Abdulla Avloniy B) Is'hoqxon Ibrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) Abdulla Qodiriy

11. Kimning navoiyshunos sifatidagi dastlabki ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar jamg'armasida saqlanayotgan "Insoniyat haqida Navoiyning fikri" nomli risolasi bo'ldi?

- A) Abdulla Avloniy B) Abduraf Fitrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) G'ulom Zafariy

12. Cho'lpon qaysi asarga o'z taqrizini shunday boshlaydi: "Yaqinda o'zbek sahnasi ulug va ulugligi qadar yuksak va gozal bir tomosha (pyesa) ko'rди. Men o'zim iqror qilarg a teyishmankim, uning o'zini va oynalishmi tegishincha tanqid va yo taqriz qiluvni men bajara olmayman. Biroq, bu yol va to'g'rida yozmoqlik vazifasi menga tushkanlikdan ko'p chuqur bo'lmagan qarashimni yozib kelaman "?

- A) "Chin sevisht"
B) Abulfayzxon
C) "Shaytonning Tangriga isyoni"
D) "Abo Muslim"

13. 1925-yilda O'zbekiston ijtimoiy sho'rolar jumhuriyati Bosh siyosiy ong-bilim tarqatuv idorasi va Sanoei nafisa nozirining talabi bilan Termizga borib, musiqa bilim yurtida mudir bo'lib ishlaydi?

- A) Abdulla Avloniy B) Abduraf Fitrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) G'ulom Zafariy

14. "**Afsus**" taxallusi bilan she'rlar yozgan jadid kim?

- A) Abdulla Avloniy B) Is'hoqxon Ibrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) Abdulla Qodiriy

15. G'ulom Zafariyning ijodini ijobiy baholagan ayrim tanqidchilar siyosiy iqlimning keskinlashib borishi bilan qaysi asarini bizga kerakmi? - degan savolni ko'ndalang qo'yish va, hatto, bu asarni sinfiy yot bodgan millatchining zararli dramasi deyish darajasiga borganlar?

- A) "Halima" B) "Erk bolalari"
C) "Tuyg'unoy" D) "Bahor"

16. 2003-yilda esa taniqli olim, san'atshunoslik fanlari nomzodi Sirojiddin Ahmedov kimning "Tanlangan asarlari ni chop ettirdi?

- A) Abdurauf Fitrat
B) Mahmudxo'ja Behbudiy
C) Munavvar qori Abdurashidxonov
D) Abdulla Avloniy

17. 1919-yilda yozilib, shu yili sahnalashtirilgan "Tilak" pyesasida kim o'zining ezgu orzu-tilaklarini, kurashlarini asar bosh qahramoni Murod tilidan so'zlaydi?

- A) Abdulla Avloniy B) Abduraf Fitrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) G'ulom Zafariy

18. Kim olti tildagi: arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sarta (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta al-sina" nomli lug'at kitobini yaratdi?

- A) Abdulla Avloniy B) Is'hoqxon Ibrat
C) Abdulhamid Cho'lpon D) Abdulla Qodiriy

19. Kimning sa'y-harakatlari bilan Toshkentda 1909-yilda "Ko'mak", 1913-yilda "Doril o'jizin" xayriya jamiyatlari ochilib, yoshlarni xorijsa o'qishga yuborish uchun va boshqa muhtojlarga xayriyalar berilishi mutlaqo yangi tarixiy voqea bo'ldi?

- A) Abdurauf Fitrat
B) Mahmudxo'ja Behbudiy
C) Munavvar qori Abdurashidxonov
D) Abdulla Avloniy

20. Sho'rolar davrining dastlabki yillaridayoq "Matbaayi Is'hoqiya" nomi olib tashlandi vaqanday nomda faoliyat ko'rsatdi?

- A) "Viloyat" B) "Udarnik"
C) "Qizil bayroq" D) "Tukestanskiy videmostiy"

21. Kim 1913- yil 20-avgustdan u "Oyina" jurnalini chiqara bosbladi?

- A) Abdurauf Fitrat
B) Mahmudxo'ja Behbudiy
C) Munavvar qori Abdurashidxonov
D) Abdulla Avloniy

22. Qaysi kitobning nomlanishi haqida: ba'zi tadqiqotchilar ushbu darslikning nomlanishini "Bolalar uchun kitob", "Bolalar uchun yozuv kitobi", "Bolalar kitobi" kabi shakllarda tarjima qiladilar?

- A) "Kitobat ul-atfol"
B) "Risolayi asbobi savod"
C) "Mux- tasar tarixi islom"
D) "Madxali jug'rofiyayi umroniy"

23. Kim "Buxoro voqealari va dafi tuhmat" ("Hurriyat" gazetasi, 1917-yil 1-may) degan maxsus maqola yozgan?

- A) Abdurauf Fitrat
B) Mahmudxo'ja Behbudiy
C) Munavvar qori Abdurashidxonov
D) Abdulla Avloniy

24. Quyidagilardan qaysi biri 3-4 sinflar uchun Geografiya darsligi hisoblanadi?

- A) "Adibi avval" B) "Jug'rofiya"
C) "Yer yuzi" D) "Havoyiji diniya"

25. "Nasbriyoti Behbudiya" da ilk bor kimning turkiy tilda tuzgan Turkiston, Buxoro, Xiva xaritasi ruschada chop etildi?

- A) Abdurauf Fitrat
B) Mahmudxo'ja Behbudiy
C) Munavvar qori Abdurashidxonov
D) Abdulla Avloniy

Tuzuvchi: Nurbek Nomozov